AKSIOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA BO‘LAJAK PEDAGOGLARNING TARBIYAVIY FAOLIYATINI TASHKIL ETISH

Asheraliyeva M.X.,
Guliston davlat pedagogika instituti tyutori
e-mail: asheralievamavjuda@gmail.com.

Annotatsiya: Aksiologik yondashuv insonparvarlik pedagogikasining uzviy o‘ziga xosligi bo‘lib, barcha odam unda jamoaviy rivojlanishning maqsadi va jamiyatning oliy qadriyati sifatida qaraladi. Shuning uchun aksiologiyaga (tabiiy qadriyatlar haqidagi (nazariy) falsafiy 3 nazariyalar) yangi ta’lim falsafasi sifatida va zamonaviy pedagogika metodologiyasiga uyg‘un tarzda qaraladi.

Aksiologik fikrlash markazida dunyodagi voqea-hodisalaming o‘zaro ta’siri va o‘zaro bog‘liqligi konseptsiyasi turadi. U tasdiqlaydiki, bizning dunyo - bu butun insoniyat dunyosi, shuning uchun umumiylikni ko‘ra bilish lozim, faqatgina insoniyatni birlashtirib qolmay, balki har bir alohida shaxsni tavsiflaydi. Insondan tashqaridagi ijtimoiy taraqqiyotni qarash - uning insonparvarlik poydevoridan alohida fikrlashi demakdir. Aynan, ana shunday tarzdagi fikrlash zamonaviy jamiyat taraqqiyoti global tendensiyada insonparvarlik kasb etadi, umuminsoniy qadriyatlami ma’qullashi uning mazmunini tashkil etilish haqida ushbu maqolada fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: aksiologik, hodisa, yunon, nazariy, pedagogik, go‘ya,voqea, shaxs, bog‘liqlida, sharq, uzviy.

Аннотация: Аксиологический подход является неотъемлемой чертой гуманистической педагогики, в которой целостная личность рассматривается как цель коллективного развития и высшая ценность общества. Поэтому аксиология (философские учения о природных ценностях) рассматривается как новая философия образования и находится в гармонии с современной педагогической методологией. В центре аксиологического мышления лежит концепция взаимодействия и взаимосвязанности событий в мире. Он утверждает, что наш мир — это мир всего человечества, поэтому необходимо уметь видеть то общее, что не только объединяет человечество, но и характеризует каждого отдельного человека. Рассматривать социальное развитие вне человека — значит мыслить его отдельно от основ человечества. Именно такой тип мышления находит свое отражение в глобальной тенденции гуманизма в развитии современного общества, организации его содержания, утверждении общечеловеческих ценностей, организации его содержания, что отражено в данной статье.

Ключевые слова: аксиологический, явление, греческий, теоретический, педагогический, как будто, событие, личность, родственный, восточный, интегральный.

Abstract: The axiological approach is an integral feature of humanistic pedagogy, in which the whole person is considered the goal of collective development and the highest value of society. Therefore, axiology ((theoretical) philosophical theories of natural values) is considered as a new philosophy of education and in harmony with modern pedagogical methodology. The concept of the interaction and interdependence of events in the world is at the heart of axiological thinking. It confirms that our world is the world of all humanity, therefore it is necessary to see the commonality, which not only unites humanity, but also characterizes each individual. To look at social development outside of man means to think about it separately from the humanistic foundation. It is precisely this kind of thinking that makes the development of modern society humanistic in the global trend, and the organization of its content, the adoption of universal human values, is reflected in this article.

Keywords: axiological, phenomenon, Greek, theoretical, pedagogical, as if, event, person, related, eastern, integral.

Bugungi kunda ta’lim tizimining rivojlanishidagi asosiy yo‘nalishlardan biri qadriyatli paradigmaga o‘tish jarayoni ro‘y bermoqda. Mazkur yondashuvga yo‘nalganlik qarashlarning kontseptual tizimlari, an’anaviy va innovatsion jarayonlarning qadriyatli asoslarini yaqinlashuvini obyektiv jihatdan talab etadi. Bu borada bo‘lajak pedagoglar pedagogik hodisalarni o‘rganishda aksiologik yondashuvning tarixiy ildizlarini, shakllanish va rivojlanish omillarini hamda mazmun-mohiyatini to‘la anglab olish o‘ta muhimdir.

Bo‘lajak pedagoglar aksiologik muammolar bilan millodan avvval VI-V asrlardayoq qadimgi yunon olimlari - Geraklit, Demokrit, Suqrot, Aflotun, Aristotellar shug‘ullana boshlashgan.Ular asosiy aksiologik savollarni shakllantirishga harakat qilganlar: oliy baxtga erishish mumkinmi? Hayot mazmuni nimada? Haqiqat bormi? Go‘zallik nima? Sharq mutafakkirlaridan Abu Rayhon

Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Xojib, Alisher Navoiylar inson hayoti, uning ta’lim va tarbiya olishi muhimligini o‘z asarlarida ko‘rsatib berish orqali pedagogik aksiologiyaning tarnal toshini qo‘yganlar. Uzoq vaqtlar nazariy-pedagogik masalalar mustaqil tadqiqot sohasi sifatida emas, falsafa doirasida qarab kelingan. Biroq Sharq mutafakkirlarining g‘oyalari ta’lim, tarbiya, ta’lim metodikasi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, pedagogik fikrlar rivojida hal qiluvchi rol o‘ynagan. Misol uchun, X asrda al-Xorazmiy tomonidan qo‘llanilgan kuzatilgan voqea va hodisalarni tushuntirishda muntazamlilik, ketma-ketlik tamoyilini XIX asr oxirida Abdulla Avloniyning pedagogik asarlarida uchratish mumkin. Shaxsga yo‘naltirilgan qadriyatli bilimlar ikki jihatga qaratilgan: ichki - shaxsiy muvaffaqqiyatga erishish vositasi sifatida (Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Alisher Navoiy, lalоliddin Davoniy) va tashqi - o‘z-o‘zini anglash va o‘zo‘zini takomillashtirish vositasi sifatida (Yusuf Hamadoniy, Xoja Hasan Andoqiy, Xoja Abdulloh Barraqiy (Barqiy), Xoja Ahmad Yassaviy, Xoja Abdulxoliq G’ijduvoniy Xojagon, Bahouddin Naqshband).

Qadimgi va o‘rta asrlarda shakllangan an’analar Sharq uyg‘onish davriga kelib, o‘ziga xos ahamiyatga ega bo‘ldi. Ta’lim va tarbiya masalalari qaytadan ko‘rib chiqila boshlandi va ulami hal qilishning yangi yo‘llari izlab topildi. Insonparvarlik yo‘nalishiga ega bo‘lgan ta’lim mazmuniga qo‘yiladigan talablar o‘zgardi. Ustoz va ta’lim oluvchi o‘rtasidagi munosabatlar o‘zgardi, faollik, o‘rganish jarayonida ta’lim oluvchilaming mustaqill igi qadriyati o‘sib bordi. Ta’lim oluvchining bilishga qiziqishini shakllantirish g‘oyasi rivojlandi. Mazkur davrda pedagogik g‘oyalar markazida bolaning individual rivojlanishi qo‘yilsa-da, biroq shaxs jamiyatga qarama-qarshi qo‘yilmagan. Bu bilan bog‘liqlikda ta’lim ijtimoiy taraqqiyot sharti sifatida belgilangan. Buyuk olim va davlat arbobi Mirzo Ulug‘bek esa, «bilim olishga intilish davlat ravnaqiga yo‘l demakdir», degan aksiomani iIgari surib ta’limning aksiologik qadriyat statusini aniq belgilab bera olgan edi. Keyinchalik ma’rifatparvar pedagog olimlar - Zavqiy, Avaz O‘tar, Dilshodi Barno, Furqatlarning, jadid pedagog olimlari - Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda Niyoziylar ta’limning davlat-jamiyatshaxs rivojidagi integratsiyasini o‘z qarashlari orqali ochib berishgan. Faqatgina XX asrning boshlaridan bosh lab aksiologiya dastlab falsafaning alohida yo‘nalishi sifatida o‘rganila boshlandi. Bu harakatni 1902 yilda nemis olimi P.Lapi bosh lab bergan. Shundan so‘ng Yevropa faylasuflari mazkur masalaga jiddiy e’tibor qarata boshladilar. Biroq sobiq sovet davlatida XX asrning 60-yillarigacha mazkur masalaga idealistik Yo‘nalish sifatida qaralib, tadqiq etilmagan. Ana shu davrdan boshlab rus olimlaridan B.G.Ananyev, V.A.Vasilenko, O.G. Drobnitskiy. B.G.Kuznetsov, N.M.Kuznetsov, A.A.Ruchka. V.P.Tugarinov, V.A.Yadovlar qadriyat muammosini tadqiq eta boshlaganlar. O‘zbek olimlaridan J.T. Tulenov birinchilardan bo‘lib, qadriyatlar falsafasini tadqiq etgan. [33] Keyinchalik faylasuf olimlardan E.Yusupov, S.Komilova, I.Karimov, Q.Nazarov, S.Valieva. M.Rustamova, K.Tulenovalar aksiologiyaning turli jihatlarini yoritishga harakat qilganlar. XX asrning 80-yilJaridan boshlab pedagogik aksiologiya ta’lim falsafasi sifatida tadqiqotlar sohasiga aylandi

[33] 1. Falsafa: izohli lug‘at.–Toshkent: O‘zFA Falsafa va huquq instituti, 2008. – 419 b.

(B.S.Gershunskiy, V.M.Rozin, Yu.B.Tupalov, M.I.Fisher, P.G.Shedrovetskiy). Ta’limning insonparlashuvi sharoitida o‘quvchilarning bilish faoliyatiga motivatsion-qadriyatli munosabat tadqiq etildi (B.I.Dodonov, B.G.Kuznetsov, E.A.Mamchur, V.B.Mironov va boshqalar). [34]Pedagogik faoliyatning aksiologik tavsifi B.Z.Vulfov, V.A.Slastyonin, E.N.Shiyanovlarning ishlarida o‘z aksini topgan. O‘zbekistonda J.G’ .Yuldas! .. ev, R.H.Jo‘raev, F.R. Yuzlikaev, Sh.Q. Qurbonov, R.Axliddinov, M.Q. Quronov, R.Ibragimov, S.Madiyorova, R.Qodirova, A.Kaldibekova, Sh.Q. Mardonov, T.Toshlonov, I.Reves, N.M. Egamberdieva, A.Muxsieva, N.Djamilovalar o‘z tadqiqotlarini pedagogik aksiologiya nuqtai nazaridan yoritishga harakat qilganlar.

Bugungi kunga kelib esa, pedagogik aksiologiyaning jadal rivojlanayotganligi namoyon bo‘lmoqda. Buning asosiy sababi jamiyat ehtiyojlardan kelib chiqqan holda, shaxsning ma’naviy imkoniyatlariga bo‘lgan talablarning oshib borayotganligidadir.

Davriy nashrlarda ta’limning rivojlanishining aksiologiyaga asoslangan strategiyasi; qadriyatlarga tarbiya maqsadining asosi sifatida qarash; o‘quvchilaming qadriyatga yo‘nalganligini shakllantirishning amaliy tajribasini tahlil etish, ta’limni qadriyatli tashxis etishning vazifalarini shakllantirish kabi uning insonparvarlik mohiyatini aks ettirishi ko‘zga tashlanadi.

Pedagogik aksiologiyaning asosiy tushunchalari qatoriga quyidagilar kiradi: qadriyat, aksiologik ong, aksiologik dunyoqarash, aksiologik baholash, aksiologik munosabat, qadriyatli xulqatvor, qadriyatli ustanovka, aksiologik yo‘nalganlik, ta’lim, tarbiya. Qadriyatlar qachonki, insonda aksiologik ong, aksiologik munosabat va ustanovkalar shakllantirilgan sharoitdagina, uning faoliyati va xulq-atvorini mo‘ljalga olishga imkon beradi. Aksiologik yo‘nalganlik yaxlitlikda shaxsning faoliyat va xulq-atvordagi aniq qadriyatlarga yo‘nalganligini aks ettiradi, har bir aniq vaziyatlarda esa shaxs qadriyatli ong va qadriyatli munosabatlarga rahbarlik qiladi. Aksiologik ong. «Ong», «munosabat», «xulq-atvor» kategoriyalarini psixologiya va falsafa o‘rganadi. Ijtimoiy ong, ijtimoiy xulq-atvorni shakllantirish metodlarini esa pedagogika aniqlab beradi. Falsafada ong odatiy usullar bilan tushuntirish va tadqiq etish mumkin bo‘imagan muhim obyekt sifatida qaraladi.[35] Ong biologik substantsiyani aks ettirmaydi; u insonga hayotiy faoliyatni jismu joni doirasida amalga oshirishga imkon beradi; bevosita aloqasiz xilma-xil faoliyat turlariga kirishish. odamlar, madaniy qadriyatlar bilan o‘zaro harakatida yuzaga chiqadi. Ya’ni, ong tufayli inson nafaqat aniq, balki mavhum muhitda ham yashay oladi. Keng ma’noda «ong» inson hayotining muammosi va ijtimoiy jarayonlarning muammoliligini aks ettirish usullari sifatida izohlanadi. Aniqroq qilib aytganda esa, ong deganda faqat insonga xos obyektiv borliqni aks ettirishning oliy shakli; uning dunyoga va o‘zo‘ziga munosabat usuli; insonning obyektiv dunyo va shaxsiy hayoti mazmunini anglashida faol ishtirok etuvchi psixik jarayonlar birligi tushuniladi. Inson falsafada ong tashuvchisi sifatida qaraladi. Inson hayotining maqsadi shaxsiy ongni yaratish, ya’ni o‘z dunyosini anglashni aks ettiradi.

[34] 2. Nazarov Q. Aksiologiya. – Toshkent: A.Qodiriy, 1994.
[35] 3. Erkayev A. Ma’naviyat – millat nishoni. – Toshkent: Ma’naviyat, 1997.

Ong o‘zida yuksak qadriyatni aks ettiradi. «Ong» tushunchasi (lotinchadan tarjima qilinganda conscire - bilish, xabardor bo‘lish degani) ongsiz va ong osti holatdan farqli ravishda, o‘zida ruhning o‘mini anglash uchun qo‘llaniladi. Falsafada ijtimoiy ong va individ ongi farqlanadi. Ijtimoiy ong deganda, uning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy hayotini aks ettiruvchi jamiyat rivojining ma’naviy natijasi tushuniladi. Individ ongi esa, o‘zida uning ichki ma’naviy dunyosini aks ettiradi. Bundan tashqari, u individning o‘zidagi ijtimoiy aloqalami ham qayd etadi (soznanie) - hamkorlikdagi bilish). Aksiologik ong - axloqiy-ma’naviy tarzda o‘z hayotiy faoliyati sohasi subyektlarini aniqlashga imkon beruvchi obyektiv borliqni aks ettirish shakli; ma’naviy qadriyatlar dunyosi sifatida borliqni aks ettirish asosida insonda dunyoni va o‘zining shaxsiy dunyosini anglashida faol ishtirok etuvchi psixikjarayonlar birligi. Aksiologik ong ijtimoiy ongning maxsus shakli bo‘lib, pedagogik voqelik va hayotni qadrlash tuyg‘usi asosida o‘ziga xos tarzda aks etadi. Unga asoslangan munosabat, yondashuv, amaliyot va faoliyat ham boshqalardan farq qiladi.

Aksiologik ong o‘z navbatida aksiologik hissiyot, idrok, qadrlash tuyg‘usi, aksiologik kechinmalar, qadriyat mazmunini ifodalaydigan tushuncha, xulq-atvor va tafakkur bilan uzviy bog‘liq. Kimdadir aksiologik idrok va qadrlash tuyg‘usi boshqalardan ko‘ra kuchli bo‘lsa, uning qalbida qadrlash tuyg‘usi bilan bog‘liq hissiyot ko‘proq namoyon bo‘lishi mumkin. Bunday kishida muayy~n qadriyatni qadrlash bi!all bog‘liq mas’uliyat va unga asoslangan faoliyat ham boshqalarga qaraganda yaqqolroq ko‘zga tashlanib turishi tabiiy. Aksiologik bilishda qadrlash tuyg‘usi va aksiologik idrok muhim ahamiyat kasb etadi. «Qadrlash tuyg‘usi» aksiologik ongning eng asosiy komponentlaridan biri bo‘lib, tabiiy va ijtimoiy hodisalaming qadrini anglash, zavq olish, lazzatlanish, mas’uliyat hissini sezish kabilarda namoyon bo‘ladigan tushunchadir. Olam va odam o‘z ahamiyati bilan qadrlidir. Olamdagi voqea, hodisa va jarayonlar odamlar uchun qadrlash tuyg‘usini uyg‘otuvchi asosdir. Shu ma’noda, obyektiv voqelikka, uning namoyon bo‘lish shakllari, ko‘rinishlariga bevosita va bilvosita bog‘liq bo‘lmagan qadrlash tuyg‘usi hamda uning mutlaq subyektiv xususiyat ekanini e’tirof etish qiyin.

Zero, qadrlash uchun qadrlanadigan «nimadir», ya’ni moddiylik yoki ma’naviylik bo‘lmog‘i, qadrlash tuyg‘usini uyg‘otish uchun esa ana shu tuyg‘uning vujudga kelishi uchun sabab bo‘ladigan «obyekt» bo‘lmog‘i lozim. Shu ma’noda, olam, odam va hayot deb atalmish serqirra ma’volar qadrlash tuyg‘usini shakllantiradigan asosiy mezonlardir. Aksiologik dunyoqarash - ijtimoiy dunyoqarashning o‘ziga xos tarkibiy qismlaridan biri sifatida, kishilaming voqelikka qadriyatli munosabati va faoliyatining Yo‘nalishini belgilaydigan aksiologik qarashlar, tamoyil va maslaklar majmuasi. Dunyoqarashning aksiologik shakli qadriyatli yondashuv, aksiologik munosabat, aksiologik baholash kabilami qamrab oladi. Aksiologik yondashuv. Pedagogik voqelikni o‘rganishda ilmiy bilishning boshqa usullari bilan birga aksiologik yondashuv ham katta ahamiyat kasb etadi. Ilmiy bilishda olam, undagi narsa, voqea, hodisa va boshqalar qadriyatning inson ongida aks etishi,· qadriyatni anglashning reallikka mos kelish qonunlari, daraja va imkoniyatlari, uning me ‘yor va mezonlarini aniqlash nihoyatda muhim. Bunga umumiy bilish nazariyasi (gnoseologiya) bilan bir qatorda ijtimoiy va tabiiy

fanlaming ma’lumotlariga, ayniqsa, valeologik va aqliy faoliyatning dalillariga, mantiq, tilshunoslik kabi fanlaming yutuqlariga tayaniladi.

Qadriyatlami anglash, o‘rganishda hissiy va aqliy bilishning uyg‘unligi, hukm, xulosalaming tushuncha, atama va belgilami umumlashtirishi, tabiiy va ijtimoiy voqelikdagi aksiologik jarayonlarni tahlil qilish, ularga tayanib amaliy faoliyat yuritish bir-biri bilan bog‘liq uzviy jarayonni anglatadi. Pedagogik hodisalarga ijtimoiy-sotsiologik yondashilganda voqea va jarayonlar orasidagi o‘zaro bog‘liqlik, tarixiy aloqadorlik, sabab va oqibat bog‘lanishining ifodasi bo‘lgan uzluksizlikning ahamiyati ortadi. Bunday yondashuv qadriyatlarga, ular bilan bog‘liq jarayonlarga nisbatan qo‘llanilganda ijobiy ilmiy va amaliy natija beradi. Bunda pedagogik qadriyatlar tartibsiz namoyon bo‘ladigan va bir-biri bilan bog‘lanmagan ijtimoiy hodisa sifatida emas, balki u yoki bu davr, ijtimoiy subyekt va boshqalar bilan bog‘langan aksiologik tizimlar hamda ularning elementlari sifatida namoyon bo‘ladi. Qadriyatlarga bunday yondashishda ijtimoiy fanlarning yutuq lari, tarix, etnografiya, demografiya va sotsiologik tadqiqotlaming natijalariga tayanish yaxshi natija beradi. Ammo qadriyatlarni o‘rganishda faqat ana shular bilan chegaralanib qolish yaramaydi. Balki reallik, uning namoyon bo‘lish shakllari, voqea-hodisa va jarayonlarning qadri, ijtimoiy ahamiyatini anglash ham nihoyatda muhim. Bunda ularning ijtimoiy funktsiyalari, o‘ziga xos tashqi ta’simi anglash katta ahamiyat kasb etadi. Faqat aksiologik yondashuv asosida qadriyatJarning iImiy kategoriya sifatidagi mohiyati, boshqa tushunchalardan farqi, obyektiv asoslari va subyektiv anglab olinishi, namoyon bo‘lish shakllari haqida to‘g‘ri ma’lumotlar olish mumkin. [36]

Bunda narsa, voqea-hodisaIar, kishilar va ularning faoIiyatiga qadr hamda qadrianish darajasi nuqtai nazaridan qaraladi. Mazkur qarashda foydalilik, qiymat va ularni ifodalaydigan iqtisodiy baho emas, balki qadming ahamiyati asosiy o‘rin tutadi. Bunda qadr va baho bir-biriga mos kelmaydigan, narsa yoki obyektning qadri uning iqtisodiy qiymatidan bir necha marta salmoqIiroq bo‘lishi ham mumkin bo‘lgan hollar ko‘p uchraydi.

Masalaning bu jihatini o‘rganish axloqshunoslik, estetika, huquqshunoslik, madaniyatshunoslik, siyosatshunoslikning dalillari va ma’naviyatning ijtimoiy qirralariga tayanadi. Bunda, ayniqsa, iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy faoliyat va jarayonlarning jamiyat hamda ijtimoiy subyektlar uchun ahamiyati, hayotning turli qirralarini aks ettiradigan muammolar hamda ularning yechimlarini ifodalaydigan qarashlar, g‘oyalar, ta’limotlar, talab va ehtiyojlaming real jarayonlar uchun qadrqimmatini aniqlash katta ahamiyat kasb etadi. Demak, olamni o‘rganish va voqelikning qonuniyatlarini tavsiflashda gnoseologik, sotsiologik va aksiologik yondashuvlarning uyg‘unligi, zarur bo‘lganda ulardan foydalanishda kompleks munosabat lozim. Koinotdagi hodisalaming sayyoramiz hayotiga,

Xulosa qilib aytganda, yer yuzida ro‘y berayotgan jarayonlarning odamlar umri va turmush tarziga ta’siri, ekologik halo kat va urush xavfi natijasida insoniyatni saqlab qolish ehtiyojlari, odam zoti va tiriklikning eng qadrli ma’volar sifatidagi ahamiyatini to‘g‘ri anglash uchun aksiologik yondashuvga tayangan ma’qul.

[36] 4. Mardonov SH., Xodjaev B., Taylanova SH., Xojimuhamedova D. Pedagogik aksiologiya. O‘quv qo‘llanma. – T.: Fan va texnologiya, 2013. – B. 3-4 (184) bet.

Aksiologik munosabat. Falsafada munosabat deganda, undagi yashirin xususiyatlami aniqlash va amalga oshirish sharti sifatida hayotiy narsa-hodisalarga aloqadorlik usuli tushuniladi. Munosabat narsada aks etmaydi va narsalarning xususiyatlarini ham aks ettirmaydi, u nimanidir qilishda ishtirok etish shakli sifatida, nimanidir ahamiyatini ochib beradi. Munosabat ikkinchisi uchun birinchisining ahamiyatini tavsiflovchi narsa-hodisalar va subyekt orasidagi aloqalarni ko‘rsatib beradi. Falsafada «qadriyat» tushunchasi «ahamiyat» tushunchasi bilan yaqin. Qachonki, subyekt obyekt bilan harakatga kirishganda, inson faoliyatining moddiy va ma’naviy dunyosini qamrab olganda obyektning yoki uning xususiyatlarining aniq ahamiyati namoyon bo‘ladi. Faqat faoliyatdagina qadriyat o‘zining muhim mavjudlik maqomini oladi. Bo‘lajak pedagoglarda Aksiologik munosabat - shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatlilikning o‘zaro aloqadorligini aks ettiruvchi shaxsning ichki pozitsiyasi. Olamda aksiologik munosabat shakllanishi har bir kishining yetuk inson sifatida voyaga yetishi jarayonining tarkibiy qismidir. Kishi kamolot sari borar ekan, o‘zi, o‘zgalar, tashqi muhit, olam, umr, vaqt, davr va boshqalaming haqiqiy qadrini anglayveradi. Bu foniy dunyoning o‘tkinchiligi, umr mazmuni, yashashning maqsadi, olamning abadiyligi qarshisidagi lahzalar qadriga yetishni o‘rganib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Falsafa: izohli lug‘at.–Toshkent: O‘zFA Falsafa va huquq instituti, 2008. – 419b

2. Nazarov Q. Aksiologiya. – Toshkent: A.Qodiriy, 1994.

3. Erkayev A. Ma’naviyat – millat nishoni. – Toshkent: Ma’naviyat, 1997.

4. Mardonov SH., Xodjaev B., Taylanova SH., Xojimuhamedova D. Pedagogik aksiologiya. O‘quv qo‘llanma. – T.: Fan va texnologiya, 2013. – B. 3-4 (184) bet.